
Sog'lik – bebaho boylik


Tani joni sog', jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan inson borki hayotning har damidan bahra olib yashashga intiladi. Mamlakat taraqqiyotini yanada yuksaltirish yo'lida o'z tanlagan sohasida, o'qishga, ishlashga va albatta muvaffaqiyatlarga erishishga harakat qiladi. Mana shu yuksak maqsadlar ila umrguzaronlik qilib kelayotgan oramizdagi odamlarga ozgina turtki, ko'mak bo'lsa bas, kutganingizdan-da yuqori ko'rsatkichlarni zabt eta olishi mumkin.

Kechayu-kunduz tinim bilmay bemorlarning ko'nglini olib, ularning dardiga darmon bo'layotgan tibbiyot xodimlari alohida e'tirofga loyiq. Ular sabab kelajak avlod sog'lom dunyoga kelmoqda.

Tibbiyot xodimlari tomonidan hududlar bo'ylab o'tkazilayotgan tibbiy ko'riklar natijasida ko'plab yurtdoshlarimizning dardlariga shifo topib, tibbiy maslahatlar olmoqda.

Xuddi shunday ko'riklardan yana biri tumandagi Bo'ston mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan 32-umumiy o'rta ta'lim maktabida tashkil etildi. Viloyat va tuman tibbiyot tor doiradagi mutaxassislari kun davomida tibbiy ko'rikka kelgan fuqarolarni ko'rikdan o'tkazildi, ularga tegishli tavsiyalar berildi.







2019-11-27 17:54:13